

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

*Qo‘lyozma huquqida*  
UDK: 005.591.6:332.146(575.1)

**Hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini boshqarishda  
innovatsiyalarning roli (Olmazor tumani misolida)**

**MO‘MINOV FAZLIDDIN XUSNIDDIN O‘G‘LI**

**08.00.13 – Menejment**

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy  
darajasini olish uchun yozilgan

**D I S S E R T A T S I Y A**

**Toshkent – 2025**

|                 | <b>M U N D A R I J A</b>                                                                                                   |            |
|-----------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------|
|                 | <b>KIRISH.....</b>                                                                                                         | <b>3</b>   |
| <b>I BOB.</b>   | <b>Hududiy rivojlanishni boshqarishda innovatsion yondashuvlarning nazariy-metodologik asoslari</b>                        | <b>12</b>  |
| 1.1.            | Hududiy boshqaruvda innovatsion texnologiyalarning mohiyati va ahamiyati                                                   | <b>12</b>  |
| 1.2.            | Hududiy rivojlanish strategiyalarida innovatsion komponentlarni integratsiyalash usullari                                  | <b>30</b>  |
| 1.3.            | Hududlarga investitsiyalarni jalb etishda marketing strategiyasidan foydalanishning ahamiyati                              | <b>42</b>  |
|                 | <b>Birinchi bob bo'yicha xulosalar</b>                                                                                     | <b>58</b>  |
| <b>II BOB.</b>  | <b>Olmazor tumanining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini boshqarishda innovatsion yondashuvlar tahlili</b>                  | <b>59</b>  |
| 2.1.            | Olmazor tumanining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari va boshqaruv tizimi tahlili                              | <b>59</b>  |
| 2.2.            | Olmazor tumanida qo'llanishi va tuman darajasida boshqaruvning innovatsion texnologiyalari samaradorligi                   | <b>74</b>  |
| 2.3.            | Olmazor tumani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini innovatsion boshqaruv orqali takomillashtirish yo'llari va imkoniyatlari  | <b>85</b>  |
|                 | <b>Ikkinchi bob bo'yicha xulosalar</b>                                                                                     | <b>97</b>  |
| <b>III BOB.</b> | <b>Olmazor tumanining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini boshqarishda innovatsiyalarning rolini oshirish istiqbollari</b>   | <b>99</b>  |
| 3.1.            | Tumanda innovatsion boshqaruv texnologiyalarini joriy etish va takomillashtirish yo'llari                                  | <b>99</b>  |
| 3.2.            | Olmazor tumanida "aqlli shahar" konsepsiyasini joriy etish va raqamli transformatsiya strategiyasini ishlab chiqish        | <b>112</b> |
| 3.3.            | Hududiy boshqaruvda innovatsion yondashuvlarni qo'llashning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar | <b>124</b> |
|                 | <b>Uchinchi bob bo'yicha xulosalar</b>                                                                                     | <b>140</b> |
|                 | <b>XULOSA</b>                                                                                                              | <b>142</b> |
|                 | <b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI</b>                                                                                  | <b>144</b> |
|                 | <b>ILOVALAR</b>                                                                                                            | <b>156</b> |

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati.** O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining hududiy rivojlanish jarayonlarini samarali boshqarish va zamonaviy texnologiyalar asosida transformatsiya qilish bugungi kunda davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. 2023-yil yakunlariga ko‘ra, mamlakat yalpi ichki mahsuloti (YAIM) 6,0 foizga o‘tdi, hududlarning iqtisodiy salohiyatini to‘liq ishga solish, infratuzilmani modernizatsiya qilish va investitsiya muhitini yaxshilash bu jarayonning asosiy omillaridan biri bo‘lmoqda<sup>1</sup>. Ayniqsa, Olmazor tumani kabi shahar tumanlarida raqamli iqtisodiyot va innovatsion boshqaruv yondashuvlarini joriy etish orqali mahalliy darajada barqaror iqtisodiy o‘rni ta’minlash dolzarb vazifa sifatida belgilangan.

Dunyo tajribasi shuni ko‘rsatadiki, rivojlangan mamlakatlarda hududiy boshqaruv sohasida innovatsion texnologiyalar, raqamli infratuzilma, “aqlli shahar” konsepsiyasi va yashil iqtisodiyot elementlarini joriy etish orqali iqtisodiy barqarorlik hamda ijtimoiy farovonlikka erishilmoqda. Masalan, Yevropa Ittifoqida 2023-yilda umumiy investitsiyalar hajmi 3,1 trillion yevroga yetgan bo‘lib, shundan katta qismi hududlararo raqamli infratuzilmani rivojlantirish va yashil texnologiyalarni joriy etishga yo‘naltirilgan<sup>2</sup>. AQShda esa 2022–2023-yillarda “Smart Cities” loyihalari doirasida 165 dan ortiq shahar innovatsion infratuzilma va boshqaruv tizimlarini joriy etdi<sup>3</sup>.

Shu bilan birga, jahon miqyosida hududiy rivojlanishni samarali boshqarish va innovatsion komponentlarni joriy etish masalasi global dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, 2050-yilgacha global aholi soni 9,7 milliard kishiga yetishi kutilmoqda, bu esa hududiy boshqaruv, resurslardan samarali foydalanish va raqamli yechimlarga

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi: <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/makroiqtisodiyot>

<sup>2</sup> European Commission Regional Policy Report, 2023: [https://ec.europa.eu/regional\\_policy/en/newsroom/news/2023](https://ec.europa.eu/regional_policy/en/newsroom/news/2023)

<sup>3</sup> U.S. Smart Cities Initiatives, 2023 Report: <https://www.smartcitiesworld.net/news/news/smart-cities-progress-in-the-us-8654>

ehtiyojni keskin oshiradi<sup>4</sup>. Jahon bankining 2023-yilgi hisobotida ta’kidlanishicha, innovatsion yondashuvlarni tatbiq etgan mamlakatlar iqtisodiy barqarorlik ko’rsatkichlari bo’yicha 20 foiz yuqori natijalarga erishgan<sup>5</sup>.

Tadqiqot ishi O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish, raqamli iqtisodiyot va hududlarni kompleks boshqarishni takomillashtirishga oid me’yoriy-huquqiy hujjatlar hamda davlat strategiyalariga asoslanadi. Jumladan, mazkur dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 24-iyuldagi “Innovatsion faoliyat to‘g‘risida”gi O‘RQ–576-son qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF–6079-son, 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–60-son farmonlari, 2022-yil 7-noyabrdagi “Fan va innovatsiyalarni 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ–4364-son, 2022-yil 29-dekabrdagi “Hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ–4659-son qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 30-martdagi “Aqlli shahar”lar (“Smart City”) konsepsiyasini joriy etish to‘g‘risida”gi 249-son qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Hududiy boshqaruvga innovatsion texnologiyalarni joriy etish va raqamli transformatsiya global ilmiy izlanishlarda alohida e’tibor markazida bo‘lib kelmoqda. Jumladan, hududiy

---

<sup>4</sup> United Nations, World Population Prospects, 2022: <https://www.un.org/en/global-issues/population>

<sup>5</sup> World Bank, Global Economic Prospects, 2023: <https://www.worldbank.org/en/publication/global-economic-prospects>

boshqaruvning texnologik modernizatsiyasi, “aqlli shahar” konsepsiyasi, Big Data va IoT texnologiyalarining roli Saskia Sassen, Peter F. Drucker, Manuel Castells, Michael E. Porter, Mark R. Kramer, Anthony M. Townsend, Erik Brynjolfsson, Andrew McAfee, Klaus Schwab, Joseph A. Schumpeter kabi xorijlik olimlar tomonidan tadqiq etilgan<sup>6</sup>.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari hududiy boshqaruv sohasida innovatsion texnologiyalar va raqamli yechimlar integratsiyasi Milner B.Z., Kozyrev A.N., Lapidus L.V., Tatur Yu.G., Glazyev S.Yu., Kuleshov S.V., Ivanov S.V. kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlarida o‘rganilgan<sup>7</sup>.

O‘zbekistonda hududiy boshqaruv tizimini modernizatsiya qilish va innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish masalasi Aliyeva M.T., Babajanov A.R., Elmurodov T.S., Kasimova Z., Makhmudov S., Otajanov U. kabi olimlar tomonidan ko‘rib chiqilgan<sup>8</sup>.

**Dissertatsiya mavzusining tadqiqot bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining AL-8023082021 – “Iqtisodiy

---

<sup>6</sup> Sassen, Saskia. Territory, Authority, Rights: From Medieval to Global Assemblages. Princeton, New Jersey: Princeton University Press, 2003; Drucker, Peter F. Management: Tasks, Responsibilities, Practices. New York: HarperBusiness, 2007. (Ilk nashr 1973-yilda, so‘nggi yangilangan nashri 2007; Castells, Manuel. The Rise of the Network Society (Second Edition). Oxford, UK: Wiley-Blackwell, 2010; Porter, Michael E., & Kramer, Mark R. Creating Shared Value: How to Reinvent Capitalism and Unleash a Wave of Innovation and Growth. Boston, MA: Harvard Business Review, 2011. (Maqola, HBR jurnali asosida) Havola: <https://hbr.org/2011/01/the-big-idea-creating-shared-value>; Townsend, Anthony M. Smart Cities: Big Data, Civic Hackers, and the Quest for a New Utopia. New York: W. W. Norton & Company, 2013.; Brynjolfsson, Erik, & McAfee, Andrew. The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies. New York: W. W. Norton & Company, 2014.; Schwab, Klaus. The Fourth Industrial Revolution. Geneva, Switzerland: World Economic Forum, 2016.; Schumpeter, Joseph A. The Theory of Economic Development: An Inquiry into Profits, Capital, Credit, Interest, and the Business Cycle. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1934. (Reprintlar keyinchalik nashr etilgan, asl nashr 1934) Havola: <https://www.hup.harvard.edu/books/9780674879904>

<sup>7</sup> Мильнер, Б.З., Управление развитием регионов: инновационный подход. – Москва: Инфра-М, 2018. – 352 с.; Козырев, А.Н., & Лapidus, Л.В. Цифровая трансформация регионального управления. – Москва: Издательство Высшая школа экономики, 2020. – 280 с.; Татур, Ю.Г. Стратегическое управление развитием территорий. – Москва: КНОРУС, 2019. – 312 с.; Глазьев, С.Ю. Цифровая экономика: вызовы и перспективы для России. – Москва: Экономика, 2017. – 256 с.; Кулешов, С.В., & Иванов, С.В. Городская инфраструктура и Smart City: концепции и технологии. – Санкт-Петербург: Питер, 2021. – 368 с.

<sup>8</sup> Aliyeva, M.T. Hududiy boshqaruv tizimlarining innovatsion rivojlanish yo‘nalishlari. – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2023; Babajanov A.R. Hududlarni rivojlantirish (o‘quv qo‘llanma). – T., TIQXMMI, 2020. – 393-b.; Elmurodov T.S. O‘zbekiston sanoat klasterlarida moliyaviy mexanizmlar va innovatsiyalar: raqobatbardoshlikni oshirish yo‘llari, 2025; Kasimova, Z. Turizm hududlarini boshqarishda innovatsion texnologiyalar roli. – Toshkent: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti nashriyoti, 2024; Said-Amirkhan Makhmudov. General description of the Smart City governance system (Smart Education) on the experience of Uzbekistan (smart-boshqaruv va ta’lim komponenti), 2020; Otajanov Umid. The main aspects of innovative development regions of the Republic of Uzbekistan (hududlarda innovatsion rivojlanish omillari va muammolari), 2019.

hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti indikatorlari asosida “Mamlakatlarga xos xatarlarni tasniflash tizimi”dagi o‘rnini baholashning O‘zbekiston uchun “milliy model”ni ishlab chiqish ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga kiritilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** hududiy boshqaruv tizimida innovatsion texnologiyalar, marketing strategiyalari va zamonaviy raqamli yechimlardan foydalanish orqali Olmazor tumani misolida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirish hamda hududiy boshqaruv samaradorligini oshirish uchun ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

hududiy boshqaruvda innovatsion texnologiyalarning nazariy asoslarini o‘rganish va ularning iqtisodiy samaradorligini baholash;

hududiy rivojlanish strategiyalarida innovatsion komponentlarni integratsiya qilish usullarini tahlil qilish;

investitsiya jalb etishda marketing strategiyalaridan samarali foydalanish imkoniyatlarini aniqlash;

Olmazor tumanining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holati va boshqaruv tizimini tahlil qilish;

tumanda qo‘llanayotgan innovatsion boshqaruv texnologiyalari samaradorligini baholash;

Olmazor tumanida innovatsion boshqaruv texnologiyalarini joriy etish va takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

tumanda “aqlli shahar” konsepsiyasini joriy etish va raqamli transformatsiya strategiyasini ishlab chiqish;

hududiy boshqaruvda innovatsion yondashuvlar asosida ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlikni oshirish yo‘llarini asoslab berish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida Olmazor tumani misolida hududiy boshqaruv tizimida innovatsion texnologiyalar va marketing strategiyalaridan foydalanish orqali hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish boshqaruv jarayoni olingan.

**Tadqiqotning predmetini** hududiy boshqaruv tizimida innovatsion texnologiyalar va marketing strategiyalarini qo'llash orqali ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirish jarayonida shakllanadigan tashkiliy-iqtisodiy munosabatlar tizimi tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot davomida tizimli yondashuv, taqqoslash, marketing tahlili, iqtisodiy-statistik tahlil, modellash va prognozlash usullaridan foydalanildi. Ushbu usullar orqali hududiy boshqaruv samaradorligini oshirish va innovatsion yondashuvlarning iqtisodiy asoslarini aniqlashga erishildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

hududlarni boshqarish modeli infratuzilmaviy rivojlanish "Internet ashyolar" (IoT), geoaxborot tizimlari (GIS) va katta ma'lumotlar tahlili (Big Data) kabi intellektual raqamli ekotizim elementlarini integratsiyalash asosida avtomatlashtirilgan boshqaruv mexanizmini shakllantirish taklifi asoslangan.

hududlarni innovatsion rivojlantirish yondashuvi "Smart City" raqamli boshqaruv tizimi va Fuzzy AHP usulining ustuvorlikni baholash algoritmlarini integratsiyalash asosida boshqaruv qarorlarini optimallashtirish mexanizmi taklifi asoslangan.

Olmazor tumanida hududiy boshqaruv samaradorligini oshirish bo'yicha 2030-yilgacha mo'ljallangan prognoz pessimistik, inersion va optimistik prognoz ssenariylari asoslangan.

infratuzilmaviy va demografik omillarni qamrab olgan ko'p omilli modelga ko'ra hududlar boshqaruv samaradorligini oshirish maqsadida 2030-yilgacha mo'ljallangan prognoz ssenariysi asoslangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

hududiy boshqaruvda innovatsion texnologiyalar konsepsiyasi ishlab chiqildi. Sun'iy intellekt, IoT, GIS va Big Data yechimlarini integratsiya qilish orqali Olmazor tumani darajasida ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni boshqarishning kompleks modeli taklif qilingan;

Fuzzy AHP va TF-IDF metodlariga asoslangan ustuvorlashtirish mexanizmi ishlab chiqildi. U orqali tuman iqtisodiyotining asosiy rivojlanish

yoʻnalishlari - turizm, xizmat koʻrsatish va IT sohasi - empirik ravishda aniqlab berildi va investitsion muhitni yaxshilashga amaliy asos yaratilgan;

IoT, GIS va prediktiv analitika texnologiyalarini joriy etish boʻyicha tavsiyalar tayyorlandi. Ushbu tavsiyalar asosida turizm va xizmat koʻrsatish sohalarida yangi loyihalar shakllantirildi hamda qoʻshimcha ish oʻrinlari yaratish imkoniyati yuzaga kelgan;

prognozlash modeli ishlab chiqilib, Olmazor tumanining 2025-2030 yillarga moʻljallangan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish koʻrsatkichlari prognoz qilingan;

Smart City komponentlari tajriba tariqasida joriy etildi. 15 ta mahalla kesimida raqamli boshqaruv elementlari sinovdan oʻtkazilib, resurslardan foydalanish samaradorligi 12 % ga, aholi murojaatlariga javob berish tezligi esa 1,5 baravar oshirilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** qoʻllangan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, tadqiqotda Oʻzbekiston Respublikasi Oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi va xalqaro moliya institutlarining rasmiy maʼlumotlaridan foydalanilganligi hamda xulosa, taklif va tavsiyalarning amalda sinovdan oʻtkazilib, joriy etilganligi, olingan ilmiy natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan maʼqullanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Mazkur tadqiqotda hududiy boshqaruv tizimini rivojlantirish boʻyicha yangi yondashuv ishlab chiqildi. Xususan, Fuzzy AHP va TF-IDF metodlari kombinatsiyasi asosida hududiy boshqaruv omillarining taʼsirchanlik darajasi baholandi va ustuvor yoʻnalishlarni belgilash mexanizmi takomillashtirildi. Shu bilan birga, sunʼiy intellekt, IoT, GIS va Big Data texnologiyalarining hududiy boshqaruvdagi transformatsion roli nazariy jihatdan asoslab berildi, bu ilmiy adabiyotlarni boyitishga xizmat qiladi.

**Tadqiqot ishining amaliy ahamiyati.** Dissertatsiya natijalari hududiy boshqaruv amaliyotida qoʻllandi. Jumladan, Olmazor tumanida “Smart City”

komponentlari sinov tariqasida joriy etilib, resurslardan foydalanish samaradorligi 12 foiz, aholi murojaatlariga javob berish tezligi esa 1,5 baravar oshirildi. Shuningdek, 2025–2030-yillarga mo'ljallangan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish prognozlari ishlab chiqilib, hududiy rejalashtirish amaliyotida qo'llandi. Natijada turizm, xizmat ko'rsatish va IT sohalari ustuvor yo'nalish sifatida belgilandi va investitsiyalarni jalb qilish jarayoni takomillashtirildi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini boshqarishda innovatsiyalarning roli bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

hududlarni boshqarish modeli infratuzilma rivojlanishi, "Internet narsalari" (IoT), geoaxborot tizimlari (GIS) va katta ma'lumotlar tahlili (Big Data) kabi intellektual raqamli ekotizim elementlarini integratsiyalash asosida avtomatlashtirilgan boshqaruv mexanizmini shakllantirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi amaliyotiga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 29-noyabrdagi 01/16-5515-son ma'lumotnomasi, Toshkent shahar Olmazor tumani hokimligining 2025-yil 27-avgustdagi 353/01-son ma'lumotnomasi). Natijada Olmazor tumanida 15 ta mahalla kesimida "Smart City" komponentlari sinovdan o'tkazilib, resurslardan foydalanish samaradorligi 12 %ga oshirilgan, aholi murojaatlarini ko'rib chiqish tezligi 1,5 baravar yaxshilangan;

hududlarni innovatsion rivojlantirish yondashuvi "Smart City" raqamli boshqaruv tizimi va Fuzzy AHP usulining ustuvorlikni baholash algoritmlarini integratsiyalash asosida boshqaruv qarorlarini optimallashtirish mexanizmi taklifi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi amaliyotiga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 29-noyabrdagi 01/16-5515-son ma'lumotnomasi, Toshkent shahar Olmazor tumani hokimligining 2025-yil 27-avgustdagi 353/01-son ma'lumotnomasi). Natijada Olmazor tumanida turizm, xizmat ko'rsatish va IT sohasi ustuvor yo'nalish sifatida belgilanib,

investitsiyalarni jalb qilish jarayoni takomillashtirilgan; kichik biznes va startap loyihalar soni 8–10 %ga oshgan;

Olmazor tumanida hududiy boshqaruv samaradorligini oshirish bo'yicha 2030-yilgacha mo'ljallangan prognoz pessimistik, inersiya va optimistik prognoz ssenariylari taklifi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi amaliyotiga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 29-noyabrdagi 01/16-5515-son ma'lumotnomasi, Toshkent shahar Olmazor tumani hokimligining 2025-yil 27-avgustdagi 353/01-son ma'lumotnomasi). Natijada Olmazor tumanida 2024-yilda turizm va xizmat ko'rsatish sohasida 18 ta yangi loyihaga start berildi. Natijada 210 ta yangi ish o'rni yaratilgan va hududning yalpi hududiy mahsuloti hajmi 6,5 %ga o'sgan;

infratuzilma va demografik omillarni qamrab olgan ko'p omilli modelga ko'ra, hududlar boshqaruv samaradorligini oshirish maqsadida 2030-yilgacha mo'ljallangan prognoz ssenariysi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi amaliyotiga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 29-noyabrdagi 01/16-5515-son ma'lumotnomasi, Toshkent shahar Olmazor tumani hokimligining 2025-yil 27-avgustdagi 353/01-son ma'lumotnomasi). 2025-yil uchun Olmazor tumani rivojlanish ko'rsatkichlari prognoz qilinib, natijada aholining bandlik darajasi 5 %, xizmatlar sohasi ulushi esa 7 %ga oshishi kutilmoqda.

**Tadqiqot natijalari aprobatyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta, jumladan, 2 ta respublika va 1 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarida ma'ruza shaklida bayon etilgan hamda muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 6 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy

nashrlarda 5 ta ilmiy maqola, nufuzli xorijiy jurnalda 1 ta ilmiy maqola nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tashkil topgan bo'lib, umumiy hajmi 143 betdan iborat.